



**BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA INTERFAOL
METODLARDAN FOYDALANISH**

Abdusattarova Sarvinoz Norqo'zi qizi

Oriental universiteti

„Uzluksiz ta'lim pedagogikasi“ kafedrası o'qituvchisi.

sarvinozabdusattarova@gmail.com+998931309660

Xadiyyeva Shaxina

Oriental universiteti

*„Uzluksiz ta'lim pedagogikasi“ kafedrası Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-
bosqich 403-guruh talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida interfaol metodlarining ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Interfaol metodlar orqali o'quvchilarga nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalarni singdirish, ularni mustaqil fikrlashga yo'naltirish masalalari yoritiladi. Maqola shuningdek interfaol metodlarning afzalliklari va qulayliklarini yoritib beradi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, interfaol metodlar, ilmiy fikrlash, kuzatuvchanlik, amaliy ko'nikma.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение интерактивных методов в системе начального образования. Освещаются вопросы привития учащимся не только теоретических знаний, но и практических навыков, а также направления их на самостоятельное мышление через интерактивные методы. В статье также раскрываются преимущества и удобства использования интерактивных методов.

Ключевые слова: Начальное образование, интерактивные методы, научное мышление, наблюдательность, практические навыки.

Abstract: This article discusses the significance of interactive methods in the primary education system. It highlights the issues of instilling not only theoretical knowledge but also practical skills in students and guiding them toward independent



thinking through interactive methods. The article also explores the advantages and conveniences of interactive methods.

Keywords: *Primary education, interactive methods, scientific thinking, observation skills, practical skills.*

Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarni faqatgina tayyor bilimlar bilan ta'minlash yetarli emas. Bugungi kunda o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, muloqot qilish va muammolarni hal etish ko'nikmalarini shakillantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. SHu sababli ta'lim jaraonida interfaol metodlardan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda bu usullar bolalarning yosh xususiyatlariga mos kelib, ularni darsga jalb etishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Prezidentimiz Mirziyoyev.SH.M boshlang'ich ta'limga oid bir qancha asosiy g'oyalarni aytib o'tgan: Prezident ta'lim, ayniqsa boshlang'ich bosqich sifatli bo'lsa, kelajakdagi barcha bilimlar mustahkam bo'lishini ta'kidlaydi. SHuning uchun dars sifati, o'qitish usullari va o'quv dasturlarini yaxshilash zarurligini, an'anaviy yodlashga asoslangan ta'limdan voz kechib, interaktiv va innovatsion usullarni joriy qilish kerakligi aytgan.Prezident fikricha, boshlang'ich ta'lim- butun ta'limtizimining poydevori bo'lib, uni sifatli tashkil etish mamlakat kelajagini belgilaydi. { 1 }

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi nafaqat darsni mukammal va puxta tashkil eta olishi, balki o'qitish jarayonida turli pedagogik metod va usullardan samarali foydalanish maxoratiga ham ega bo'lishi lozim. SHular ichida Interfaol metodi haqida ma'lumotga ega bo'lamiz.

Interfaol metod tushunchasi. Inter faol metodlar -bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi faol hamkorlikka asoslangan ta'lim usullaridir.,,Interfaol'' so'zi inglizcha ,,interactive'' atamasidan olingan bo'lib , ,,o'zaro harakat qilish'' ma'nosini anglatadi . Bu usulda o'quvchi faqat tinglovchi emas, balki dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Interfaol metodlar o'quvchilarni fikrlashga, o'z fikrini erkin bayon etishga, boshqalarning fikrini tinglashga va jamoada ishlashga o'rgatadi.



Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlarning ahamiyati.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning psixologiyasi va qiziqishlari alohida e'tibor talab qiladi. Ular ko'proq o'yin, muloqot va amaliy faoliyat orqali bilimni yaxshi o'zlashtiradilar. Interfaol metodlar aynan shu ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi.

Ushbu metodlar quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi
- bilimlarni mustahkam va ongli o'zlashtirishga yordam beradi
- ijodiy fikrlashni rivojlantiradi
- nutq madaniyatini shakllantiradi
- jamoada ishlash ko'nikmasini hosil qiladi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qishga bo'lgan motivlar asosan qiziqish orqali shakllanadi. Ya'ni dars qiziqarli bo'lsa, bola faol ishtirok etadi. O'quv motivlari ko'p hollarda o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan bo'ladi. SHu sababli o'yinlar samarali hisoblanadi. {2}

Interrfaol metodlar o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi, ularning mustaqil fikrlashini, nutqini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bunday usullarda o'qituvchi asosiy axborot beruvchi emas, balki yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi rolini bajaradi. Interfaol metodlar boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni faollashtirish, ularda mustaqil fikrlash va bilimni chuqur o'zlashtirishga erishisgning eng samarali vositalaridan biridir. {3}

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda interfaol metodlardan foydalanish ta'lim jarayonining sifat va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu metodlar an'anaviy o'qitish usullaridan farqli ravishda o'quvchilarni faol ishtirokchiga aylantiradi, ularning bilimni mustaqil egallash, tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Interfaol metodlar orqali o'quvchilarda nafaqat nazariy bilimlar balki hayotiy ko'nikmalar shakllanadi. SHuningdek interfaol metodlar dars jarayonini jonlantiradi, o'quvchilarni qiziqishini oshiradi, faollashtiradi mustaqil fikrlashga va bilimni chuqur o'zlashtirishga vosita bo'lib xizmat qiladi. SHuning



uchun o'qituvchi darsni qiziqarli tashkil etib, turli metodlardan foydalangan holda o'quvchilarda ichki motivatsiyani shakllantirishi muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. „Yangi O'zbekiston strategiyasi” kitobi SHavkat Mirziyoyev Miromonovich kitobi 2021-yil
2. Boshlang'ich sinflarda o'quv mativlarining xususiyatlari Bekmurodova. J.A.
3. Urakova SHoxista Urakovna Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlardan foydalanish.
4. Google
5. Inlibrary.uz